

WORK FOR HIRE DOKTRINASINING MUALLIFLIK HUQUQIDA TUTGAN O'RNI – QIYOSIY TAHLIL (AQSH va O'zbekiston talqinida)

Qahhorova Sohiba Abdurazzoq qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Biznes huquqi fakulteti magistranti

qahhorovasohiba@gmail.com

ANNOTATSIYA

“Work for Hire” doktrinasi, asosan, intellektual mulk huquqlari (ayniqsa, mualliflik huquqi) sohasida muhim tushuncha bo'lib, biror ishni bajarish uchun to'lov yoki shartnoma asosida bajarilgan asarlarni kimning egallashi va huquqlarni kimga tegishli ekanligini aniqlaydi. Ushbu doktrina, asosan, AQSh qonunchiligida rivojlangan bo'lsa-da, uning ta'siri global miqyosda ham seziladi. Ingliz huquqida mualliflik huquqi asosan shaxsiy huquq sifatida qaralgan. Mualliflik huquqi asar yaratuvchisiga tegishli bo'lib, u o'z asari ustidan to'liq huquqlarga ega edi. Biroq, ish beruvchining (masalan, ishchi yoki xizmatchi tomonidan bajarilgan ishlar) mualliflik huquqiga egaligi haqidagi tushuncha ingliz huquqida o'ziga joy topa boshladi, ayniqsa, ishlab chiqarish va muayyan shartnomalar asosida amalga oshirilgan ishlar uchun. Quyida work for hire doktrinasining tarixiy rivojlanishiga oid asosiy bosqichlar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: *“work for hire” doktrinasi, xizmat tartibida yaratilgan mualliflik huquqi obyekti, Bern konvensiyasi, xalqaro himoya, ish beruvchi, xodim, ish bajaruvchi, ijara shartnomasi, mehnat shartnomasi.*

ABSTRACT

The “Work for Hire” doctrine is an important concept in the field of intellectual property rights (especially copyright), which determines who owns and who owns the rights to works produced for payment or contract for the performance of work. Although this doctrine developed mainly in US law, its influence is felt globally. In English law, copyright was primarily viewed as a personal right. Copyright belonged to the creator of the work, who had full rights over his work. However, the concept of the ownership of copyright by the employer (for example, work performed by an employee or employee) began to find its place in English law, especially for production and work performed under certain contracts. The following is an analysis of the main stages in the historical development of the work for hire doctrine.

Keywords: "work for hire" doctrine, copyright object created in the course of service, Berne Convention, international protection, employer, employee, performer, lease agreement, employment contract.

АННОТАЦИЯ

Доктрина «работы по найму» является важной концепцией, прежде всего в сфере прав интеллектуальной собственности (особенно авторского права), и определяет, кому принадлежат и принадлежат ли права на произведения, выполненные на основе оплаты или договора на выполнение задания. Хотя эта доктрина в первую очередь получила развитие в законодательстве США, ее влияние ощущается и во всем мире. В английском праве авторское право рассматривалось прежде всего как личное право. Авторские права принадлежали создателю произведения, который имел полные права на свое произведение. Однако представление о том, что работодатель (например, работа, выполненная работником или служащим) владеет авторскими правами, начало распространяться в английском праве, особенно в отношении производства и работ, выполняемых в рамках определенных контрактов. Ниже приводится анализ основных этапов исторического развития доктрины работы по найму.

Ключевые слова: доктрина «работы по найму», объект авторского права, созданный в процессе оказания услуг, Бернская конвенция, международная защита, работодатель, работник, исполнитель, договор аренды, трудовой договор.

KIRISH

Work for hire doktrinasining tarixiy ildizlari Ingliz huquqidan kelib chiqqan. Dastlab, ingliz huquqida, mualliflik huquqi asosan o'z asarini yaratuvchi shaxsga berilgan. Bu davrda, agar ishni bajarish uchun ma'lum shartlar asosida to'lov to'lanadigan bo'lsa, muallifning huquqlari ko'plab holatlarda ish beruvchiga o'tib ketilmagan. Amerikada, ingliz huquqi o'z o'rnini topganidan keyin, "**work for hire**" tushunchasi bu tizimning asosiy elementlaridan biri sifatida o'ziga yo'l topgan.

ASOSIY QISM

AQShda **work for hire** doktrinasining shakllanishi XIX asrning o'rtalarida boshlangan. 1830-yillarda, Amerika hukumati mualliflik huquqi bilan bog'liq bir nechta qonunlarni qabul qilgan bo'lib, ulardan birinchisi 1909-yilgi **Mualliflik Huquqi To'g'risidagi Qonuni bo'lib**, ushbu qonun asar muallifiga o'z asari ustidan mualliflik huquqlarini taqdim etgan, ammo bu qonunning qoidalari faqat muallifga

tegishli bo'lgan asarlarga e'tibor qaratgan va ishni bajaruvchi shaxsning huquqlarini cheklagan yoki ularning huquqlari haqida hech bir qoida mavjud bo'lmagan. AQShda *work for hire* doktrinasining muhim bosqichini tashkil etgan, ushbu qonun, ishni bajaruvchi shaxs va ish beruvchi o'rtasidagi shartnoma asosida amalga oshirilgan ishlar bo'yicha mualliflik huquqlarining egasi ish beruvchi hisoblanishini aniq belgilab bergan. Shuningdek, bu qonun, ishni tashkil etish, uning haqiqiy muallifi va mualliflik huquqlari bilan bog'liq murakkab holatlarni yengillashtirishga imkon bergan. 1909-yilgi qonun bo'yicha "work for hire" doktrinasini o'zi bilan mualliflik huquqini ish beruvchiga, ishni amalga oshirgan shaxsga berishni nazarda tutgan. Agar ish biror shaxs tomonidan o'z shartnomasiga asoslanib bajarilsa, huquqlar to'g'ridan-to'g'ri ish beruvchiga o'tgan. Ushbu qonun, ish beruvchi va xizmatchi o'rtasida bajarilgan ishlar bo'yicha mualliflik huquqlarini aniq belgilagan. Agar ish o'ziga xos shartnomaga asoslanib bajarilgan bo'lsa, ishni bajaruvchi shaxsning mualliflik huquqi to'g'ridan-to'g'ri ish beruvchiga o'tishini anglatgan. Bu "work for hire" doktrinasining ajralmas qismiga aylangan va keying qonunlarda ham o'z aksini topgan¹.

1976-yilgi Mualliflik Huquqi To'g'risidagi Qonun AQShda "work for hire" doktrinasining eng muhim yangilanishi bo'lgan, chunki ushbu qonun nafaqat ishlashning yangi shartlarini belgilagan, balki, mualliflik huquqlari doirasini kengaytirgan, yangi asarlar va ishlab chiqarilgan ishlarni qamrab olgan. 1976-yilda qabul qilingan qonun, ilgari ishlash shartlarida mavjud bo'lgan ko'plab murakkabliklarni olib tashlagan. **Work for hire** tushunchasi yanada kengaytirilgan va unga quyidagi ikki asosiy kategoriya qo'shilgan:

1. Ishni mualliflik huquqi shartnomasi bo'yicha yaratgan shaxs (ko'plab misollarda, xodim yoki ijrochi).

2. Maxsus shartnoma asosida ishni yaratgan shaxs (masalan, film yoki televidion dasturda ish bajarganlar).

Ushbu holatda yuqoridagi qonunda muallifning huquqlari quyidagicha bo'lgan, agar ish beruvchi va ijrochi o'rtasida yozma shartnoma mavjud bo'lsa, ishning mualliflik huquqi to'g'ridan-to'g'ri ish beruvchiga o'tgan. Shuningdek, ba'zi hollarda, mualliflik huquqi faqat ishni yaratgan shaxsga tegishli bo'lishi ham mumkinligi belgilangan².

Quyidagi ikki kategoriyadan ko'rishimiz mumkinki, 1976-yildagi qonunga ko'ra yuqorida keltirilgan: xodim va ish beruvchi o'rtasida, ya'ni bir-biriga mehnat shartnomasi asosida bog'langan shaxslar o'rtasida hamda ish beruvchi bilan ijrochi,

¹ Copyright Act of 1909 (United States Copyright Law). <https://www.copyright.gov/history/>

² Copyright Act of 1976 (United States Copyright Law). <https://www.copyright.gov/title17/>

ya'ni xizmat shartnomasi asosida bog'langan shaxslar o'rtasida tuzilgan shartnomaga asosan yaratilgan mualliflik huquqi asarlari nazarda tutilgan. Bu ikki kategoriyaning bir-biridan farqi biri xodim tomonidan ish beruvchining buyrug'i asosida yaratilganligi hisoblansa, ikkinchisi ish beruvchining buyurtmasi asosida ijrochi tomonidan yaratilganligi hisoblanar ekan. Quyida biz ushbu ikki tushunchasga atroflicha to'xtalib o'tamiz.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, **"Work for hire"** doktrinasining tarixi AQShda mualliflik huquqi sohasidagi rivojlanishning ajralmas qismiga aylandi. U ingliz huquqidan kelib chiqqan holda, AQShda 1909-yil va 1976-yilda qabul qilingan qonunlarda muayyan o'zgarishlarga uchragan. Bugungi kunda, ayniqsa, ijodiy va korporativ sohalarda, bu doktrina intellektual mulk huquqlari bilan bog'liq murakkab holatlarni tartibga solish uchun qo'llaniladi. Shuningdek, Bern Konvensiyasi kabi xalqaro huquqiy normativlar, work for hire doktrinasining global miqyosda ishlashini ta'minlaydi. Bu doktrina, ko'plab ijodiy ishlar va ishlab chiqarish jarayonlarini aniq belgilab, mualliflik huquqlarini boshqarishda muhim rol o'ynaydi.

O'zbekiston qonunchiligida **"work for hire"** doktrinasini mualliflik huquqi va intellektual mulk huquqlarini tartibga solish bilan bog'liq bo'lib, AQSh qonunchiligidan farq qiladi. O'zbekistonda mualliflik huquqlari va ish beruvchi xodimlar o'rtasidagi munosabatlar ayrim o'ziga xosliklarga ega. Quyida O'zbekiston va AQSh qonunchiligini qiyoslaymiz.

AQShda **"work for hire"** doktrinasini mualliflik huquqi doirasida asosiy tushuncha hisoblanadi. **1976-yilgi Mualliflik Huquqi To'g'risidagi Qonunda** shartnoma asosida yaratilgan ishlar bo'yicha mualliflik huquqlari ish beruvchiga o'tishini belgilangan. Bu shartnoma bo'yicha yaratilgan ishlar, agar ular maxsus ravishda ishlab chiqilgan bo'lsa (masalan, kompaniya uchun yozilgan kitob, kino, dastur va boshqalar), ishni bajaruvchi xodimning mualliflik huquqi emas, balki ish beruvchiga tegishli bo'ladi³.

O'zbekistonda mualliflik huquqi O'zbekiston Respublikasining **"Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risidagi"** Qonuni va boshqa tegishli qonunlar bilan tartibga solinadi. Ushbu qonun muallifning shaxsiy huquqlari va mulkiy huquqlarini himoya qiladi, ammo, O'zbekistonda **"work for hire"** doktrinasini haqida maxsus aniq tushuncha yo'q. O'zbekistonda mualliflik huquqi ko'pincha asarni yaratgan shaxsga tegishli bo'ladi, biroq, agar ish xodim tomonidan ishlab chiqilgan bo'lsa, uning huquqlari ko'pincha ish beruvchiga o'tsada, bu masala aniq shartnomalar va ish beruvchining huquqiy holati orqali tartibga solinadi. Yuqorida keltirilgan qonun hujjatiga ko'ra mamlakatimizda **"work for hire"** doktrinasini o'rnida bizda, xizmat

³ Copyright Act of 1976, United States Copyright Law, <https://www.copyright.gov/title17/>

tartibida yaratilgan asar⁴ tushunchasi mavjud, ushbu tushunchasi “work for hire”ga o‘xshasada ular bir-biridan farq qiluvchi tomonlari ham mavjud, ya’ni O‘zbekiston qonunchiligida faqat xodim va ish beruvchi o‘rtasida mehnat munosabatlari natijasida yaratilgan mualliflik huquqi asarlari nazarda tutilgan.

Misol uchun, ko‘pgina asarlar mualliflar tomonidan ularning xizmat (mehnat) vazifalarini bajarishlari davomida yaratiladi. Bunday asarlar «xizmat» asarlari deb yuritiladi va ular alohida huquqiy maqomga ega. Bunday huquqiy maqom to‘g‘risida gapirishdan oldin shuni ta’kidlash lozimki, muallif muayyan tashkilot bilan mehnat munosabatlarida bo‘lmasa, ushbu tashkilot uchun uning yaratgan asarini o‘z-o‘zidan xizmat asari deyishga haqli emasmiz. Demak, mehnat munosabatlariga aniqlik kiritishimiz kerak. Mehnat munosabatlarida birinchidan xodim (muallif) ichki mehnat intizomiga rioya qiladi, ikkinchidan, mehnat jamoasi bilan qo‘shilib ishlaydi, uchinchidan, ish jarayonida «jonli» mehnati, yaratgan ijodiy mehnat samarasi uchun mualliflik haqi emas, balki maosh tariqasida ish haqi oladi. Agar korxona (tashkilot) shaxsga mehnat daftarchasi yuritisa, ta’til uchun haq to‘lasa, shubhasiz bular mehnat shart nomasining mazmunidan kelib chiqadi. Shu bilan birga mehnat daftarchasi yuritmasdan o‘rindoshlikda ham ishlash mumkin, lekin yuqorida keltirilgan mehnat shart nomasining belgilaridan uni mualliflik shart nomasidan ajratish qiyin emas. Shuni ta’kidlash kerakki, xizmat asari faqatgina mehnat shartnomasi doirasida bunyodga keladi. Albatta, mehnat shartnomasi asosida xizmat qiladigan muallif yaratgan barcha asarlarni ham xizmat asari deb hisoblay olmaymiz. **Xizmat asari bu** — mehnat shartnomasi bo‘yicha muallifga muayyan yoxud umumiy topshiriq sifatida yuklatilgan vazifani bajarish tufayli yuzaga keladi. Shu bilan bir qatorda mehnat shartnomasi orqali muallifga yuklatilmagan, qolaversa «ishdan bo‘sh vaqtda», ish kuni davomida xizmat hujjatlaridan foydalanib yaratilgan asarni ham xizmat asari jumlasiga kiritib bo‘lmaydi. Shuningdek, xizmat asaridan foydalanishga bo‘lgan mutlaq huquq «ish beruvchi bilan muallif o‘rtasidagi shartnomada alohida belgilanmagan bo‘lsa» asar yaratish haqida topshiriq bergan va mehnat munosabatlari o‘rnatgan shaxsga (ish beruvchiga) tegishli hisoblanadi, demak, bu haqda maxsus shartnomada belgilanmagan bo‘lsa, asardan foydalanishga bo‘lgan alohida huquq to‘la hajmda va uni amal qilish muddati davomida, qonun bo‘yicha ish beruvchiga tegishli sanaladi.

Endi ularning huquqlariga to‘xtaladigan bo‘lsak, muallifning xizmat asaridan topshiriq maqsadi taqozo etmaydigan tarzda foydalanish huquqi deyilganda, muallif boshqa mustaqil asar yozishda, topshiriq maqsadi taqozo etgan usulda ushbu xizmat

⁴ O‘zbekiston Respublikasining “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi Qonuni. <https://lex.uz/ru/docs/-1022944>

asaridan foydalanish (ko'chirmalar olishi, mazkur asardagi hujjatlardan foydalanishi va boshqalar) nazarda tutiladi. Shuningdek, ish beruvchi xizmat asaridan har qanday tarzda foydalanganda yaratilgan xizmat asarida o'z nomini ko'rsatishga yoki asar muallifidan uni ko'rsatishni talab qilishga haqli, chunki, bu asar ish beruvchining xizmat topshirig'i yoki buyrug'i asosida vujudga kelgan bo'ladi. Shu sababli topshiriq (buyruq)ni bajaruvchi ishchi asar muallifi bo'lsa ham o'zi yaratgan xizmat asariga ish beruvchining talabi bilan uning nomini ko'rsatishga majbur bo'ladi⁵.

AQShda *“work for hire”* doktrinasiga binoan, agar ish shartnoma asosida amalga oshirilgan bo'lsa, asar ustidan mualliflik huquqi ish beruvchiga o'tadi. Bu holat ko'plab ijodiy sohalarda (masalan, kino, musiqa, dasturiy ta'minot va boshqalar) keng qo'llaniladi. Shartnoma tuzish - mualliflik huquqlarini o'zgartirishda muhim rol o'ynaydi. Agar asar ish beruvchining so'roviga ko'ra yaratilgan bo'lsa va maxsus shartnoma tuzilgan bo'lsa, mualliflik huquqi ish beruvchiga o'tadi.

O'zbekistonda mualliflik huquqi asar yaratuvchisi (muallif)ga tegishli bo'ladi. Biroq, agar xodim ish beruvchi tashkilotda ishlayotgan bo'lsa va asar ish joyida yaratilgan bo'lsa, mualliflik huquqi ish beruvchiga o'tkazilishi mumkin. Biroq, bu holatda ham, shartnoma asosida muallifning huquqlari aniq belgilanadi. Yaxshi huquqiy asosga ega shartnoma bo'lmasa, huquqlar muallifda qoladi.

Ish beruvchi va xodim o'rtasidagi munosabatlar

AQShda ish beruvchi va xodim o'rtasidagi munosabatlar aniq tartibga solingan. Ish beruvchi xodimning yaratilgan ishlaridan foydalanishga to'liq huquqqa ega bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, *“work for hire”* doktrinasida bu shartnomalar asosida yaratilgan ishlarining huquqlarini ish beruvchiga o'tkazadi. O'zbekistonda xodim tomonidan yaratilgan ishlarining huquqlari asosan xodimga tegishli bo'ladi, lekin ish beruvchi bilan tuzilgan shartnoma asosida bu huquqlar ish beruvchiga o'tishi mumkin. Bu holatda, xodimning asar ustidan to'liq huquqni saqlashi yoki ish beruvchiga o'tkazishi ko'pincha aniq shartnomalarga bog'liq bo'ladi.

1980-yildagi Bern Konvensiyasi va Work for Hire Doktrinasida

Amerika **Bern Konvensiyasiga** 1989-yilda qo'shilgandan so'ng, work for hire doktrinasida xalqaro miqyosda ham yangilandi. Konvensiya doirasida, davlatlar mualliflik huquqlarini xalqaro tizimda birlashtirishga harakat qilishdi, shu bilan birga *“work for hire”* doktrinasida bilan bog'liq qonunlar ham asosiy tamoyillarga moslashtirildi. Bu konvensiya intellektual mulk huquqlari bo'yicha xalqaro huquqni birlashtiradi. Bern Konvensiyasining talablari mualliflik huquqlarining xalqaro tan olinishi va muhofazasini ta'minlashga qaratilgan. Shu bilan birga, *“work for hire”*

⁵ Ўзбекистон Респуб.ликасининг фуқаролик кодексига шарҳ: Илмий шарҳлар. Т.3./Ўзбекистон Респуб.ликаси Адлия вазирлиги. — Тошкент: Baktria press, 2013. 448-449 б.

doktrinasi ham global miqyosda hurmatga sazovor bo'ldi. Biroq, AQShning o'ziga xos qonunlari, ayniqsa, ish beruvchi va xizmatchi o'rtasidagi shartnomalar va mualliflik huquqlarining kimga tegishli ekanligini belgilashda, jahon miqyosida o'ziga xos xususiyatlarga ega hisoblanadi⁶, chunki AQSH huquq tizimida ijara asosida yaratilgan mualliflik huquqi obyektlari boshqa huquq tizimlaridan anchagina farq qiladi.

Bugungi kunda **“work for hire”** doktrinasining qoidalari, AQShda va boshqa mamlakatlarda mualliflik huquqi bo'yicha qonunchilikda asosiy prinsip bo'lib qolmoqda. Xususan, ko'plab kompaniyalar va tashkilotlar o'zlarining ishchilarini va ijrochilarini bu doktrinaga asoslangan holda shartnomalar tuzib, ularning yaratgan asarlari ustidan mualliflik huquqlarini o'zlariga olib qo'yishadi. Bu doktrina mualliflik huquqi sohasida, xususan, ijodiy ishlar va korporativ mualliflik huquqlarini tartibga solishda muhim ahamiyatga ega. U, ayniqsa, ish beruvchi va ishchi o'rtasidagi huquqlarni aniqlashda va mualliflik huquqlarining kimga tegishliligini belgilashda aniq va tushunarli yondashuvni ta'minlaydi⁷. O'zbekiston ham Bern Konvensiyasiga a'zo bo'lib, xalqaro huquqiy normativlarga rioya qiladi. O'zbekistonda mualliflik huquqi ko'p jihatdan Bern Konvensiyasiga mos keladi, ammo **“work for hire”** doktrinasiga xos noaniqliklar mavjud.

XULOSA

O'zbekiston va AQSh qonunchiligidagi **“work for hire”** doktrinasida mualliflik huquqlari va ish beruvchi o'rtasidagi munosabatlar bo'yicha ba'zi farqlar mavjud. AQShda bu doktrina aniq qonunchilik orqali belgilanadi va ish beruvchiga mualliflik huquqlarini o'tkazish imkoniyatini yaratadi, xususan, shartnoma asosida. O'zbekistonda esa, mualliflik huquqi asosan asar yaratuvchisiga tegishli bo'lib, ish beruvchi bilan tuzilgan shartnomalarga asoslangan holda huquqlarni o'tkazish mumkin. Biroq, O'zbekistonda **“work for hire”** doktrinasida aniq qonunchilikda o'z ifodasini topmagan va bu masala ko'proq shartnoma asosida hal qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Copyright Act of 1909, United States Copyright Law, <https://www.copyright.gov/history/>
2. Copyright Act of 1976, United States Copyright Law, <https://www.copyright.gov/title17/>

⁶ Berne Convention for the Protection of Literary and Artistic Works (Berne Convention). https://www.wipo.int/treaties/en/text.jsp?file_id=283698

⁷ "Work for Hire" and Copyright Law (Copyright Alliance). <https://copyrightalliance.org/>

3. Berne Convention for the Protection of Literary and Artistic Works, https://www.wipo.int/treaties/en/text.jsp?file_id=283698
4. "Work for Hire" and Copyright Law, Copyright Alliance, <https://copyrightalliance.org/>
5. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. <https://lex.uz/docs/-180552>
6. O'zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/ru/docs/-1022944>
7. Work for Hire Agreements- I: Understanding the Doctrine Across Jurisdictions
8. <https://www.linkedin.com/pulse/work-hire-agreements-i-understanding-doctrine-across-sreya-bhar-qixdc/>
9. Ўзбекистон Республикасининг фуқаролик кодексига шарҳ: Илмий шарҳлар. Т 3./Ўзбекистон Респуб ликаси Адлия вазирлиги. — Тошкент: Baktoria press, 2013. 448-449 б.